

**O‘ZBEK XALQI BA‘ZI URF-ODATLARINING “SHAJARAI TURK” ASARIDA
YORITILISHI**

Akrom Ashiraliyev

TDPU magistranti

(Ilmiy rahbar: Shavkat Bobojonov

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Xalqimiz orasida keng tarqalgan urf-odat va an‘analari borki, bugungi kunga qadar asrlar davomida avloddan – avlodga o‘tib saqlanib kelinmoqda. Maqolada to‘qqiz hamda yetti raqamlari bilan bog‘liq urf – odatlar haqida to‘xtalib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abulg‘ozi Bahodirxon, Shajarai Turk, to‘qqiz raqami, yetti raqami.*

Аннотация: *Среди нашего народа широко распространены обычаи и традиции, сохраняемые из поколения в поколение на протяжении веков. В статье основное внимание уделяется традициям, связанным с числами девять и семь.*

Ключевые слова: *Абулгози Бахадырхан, Шаджарайи тюрк, цифр девять, цифр семь.*

Abstract: *There are widespread customs and traditions among our people that have been preserved from generation to generation for centuries. The article focuses on the traditions related to the numbers nine and seven.*

Keywords: *Abulghozi Bahadir Khan, Shajarai Turk, Number Nine, Number seven.*

Har bir xalqning bugungi kungacha saqlanib qolgan urf-odatlar, an‘analari va marosimlari albatta o‘sha xalqning qadimdan yashab kelgan turmush tarzini o‘zida aks ettiradi va bu an‘analari bugungi kungacha ba‘zi o‘zgarishlar bilan saqlanib qolgan.

Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai Turk” asarida xalqimiz orasida saqlanib qolgan ana shunday ba‘zi urf-odatlar haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

"Shajarai Turk" Xorazmning uzoq o‘tmishdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid juda ko‘plab ma‘lumotlar beruvchi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Yetuk tarixchi olim sifatida e‘tibor qozongan Abulg‘oziyning "Shajarai Turk" asari dunyoning ko‘plab tillariga, xususan, rus, fransuz, nemis, Turk tillariga tarjima qilingan⁹⁰.

Asar etnografiya, geografiya, personografiyaga oid ma‘lumotlarga boy bo‘lib, Eron, Afg‘oniston, Arabiston, Mo‘g‘uliston, Rossiya, Qozog‘iston xalqlari tarixini o‘rganishda ham o‘z o‘rniga ega⁹¹.

Abulg‘oziyning asarining 7, 8 va 9-bobining bir qismini yozib ulgurgan xolos. 1-6 boblar va 9-bobning davomi Anushaxonning topshirig‘i bilan Mahmud ibn Mulla Muhammad

⁹⁰ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – В.398.

⁹¹ Сангирова Д. Бухоро тарихининг Хоразм манбаларида ёритилиши (“Шажарайи турк” асари мисолида) // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент-Урганч, 2018. – В.351.



Urganjiy degan ulamo tarafidan yozilgan. Abulg‘oziy Bahodirxon asarning yarmiga etganda xasta bo‘ladi va o‘g‘illariga vasiyat qilib uni tugallashni topshirgan⁹².

Asarni boshida adib asarni to‘qqiz bobga bo‘lganligini ham ta‘kidlar ekan, quyidagi jummalarni keltirib o‘tadi: “Sharafiddin Yazdiy “Zafarnoma”ning muqaddimasinda aytib turur: Turk xalqining ichinda rasm turur har nimarsani to‘qquz qilmoq. Ul to‘qquzni Mo‘g‘ulning to‘qquz xonining yuzindin olib turur va taqi kitobning avvalinda ham aytuldi, xudoyi taoloning yaratgan nimarsalarining barchasin martaba-martaba yaratqan turur. Hech nimarsaning martabasini to‘qquzdan yuqori yaratqan ermas turur”⁹³.

Demak, muarrix asarni yozish jarayonida urf-odatlariga e‘tibor qaratgan va to‘qqiz bob yozilishini mo‘g‘ulning to‘qqiz xonidan olinganligini hamda turklar odatiga binoan to‘qqiz qilganligini ta‘kidlab o‘tadi. Ko‘chmanchi mo‘g‘ullar yurtimizga bostirib kirgach, ko‘pchiligi mahalliy xalq bilan yashab o‘troqlashdi. Ana shu o‘troqlashish jarayonida ba‘zi urf-odatlar mahalliy xalqimiz orasida tarqaldi. Bu jarayon keyingi davrlarda ham davom etdi. Jumladan, Qo‘qon xonligida soliqdan ozod qilingan yuqori tabaqa vakillari xonga to‘qqiz qismdan iborat buyum berishlari shart bo‘lgan. Bu an‘ana ham asarda ta‘kidlab o‘tilgan voqea bilan bog‘liq bo‘lsa ajab emas.

Xalqimiz orasida yana bir urf-odatlardan biri yetti avlodgacha ota-bobolari ism shariflarini sanashdir yoki yetti avloddan so‘ng begona hisoblanishi bilan bog‘liq jarayon haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Nega aynan yetti avlod ekanligini adib asarda tushuntirishga harakat qiladi va quyidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. Abulg‘ozi Bahodirxon asarning uchinchi bobi “Chingizxonning dunyoga kelganining zikri” bobida quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Mo‘g‘ul otasini ijaka der. Ikkinchi otani Abukan der. Uchinchi otani Ilinjak der. To‘rtinchi otani Budatu der. Beshinchichi otani Budakur der. Oltinchi otani Murti der. Yettilanchi otani Dutaqun der. To yetti otag‘acha ot qo‘yar. Andin so‘ng ot qo‘ymas. Turk va tojikda barcha odam farzandining ichinda rasm turur, yetti otani sanad qilmoq. Turk xalqi aytur yetti orqadin beri temurchiman va yo ayturki mening yetti otam shu yurtda o‘tkandur. Yo ayturkim yetti orqadin beri yorliliq yozin ko‘rganim yo‘q turur. Tojik ham shundaq der”⁹⁴.

Bundan ko‘rinib turibdiki, xalqimiz orasida yetti avlodni bilish kerakligi borasidagi urf-odat katta ehtimol bilan dastlab mo‘g‘ullar orasida mavjud bo‘lgan degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi. Hozirda ham o‘zbek oilalarida yetti otasini, ajdodini bilish an‘anasi yaxshi saqlanib qolgan. Buni "yetti boboni bilgan er yetti yurtning g‘amini yer", "Yetti otasini bilmagan mo‘rtidir" kabi xalq iboralaridan ham bilish mumkin. O‘zbek oilalarida har bir kishi o‘zligini, o‘z elining tarixini bilishi, qolaversa yetti avlodi haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi qadriyat sifatida saqlanib qolgan⁹⁵.

⁹² Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар... – Б.220.

⁹³ Bahodirxon A. Shajarai turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B.17.

⁹⁴ Bahodirxon A. Shajarai turk... – B.48.

⁹⁵ Қаюмов А. Этнологияда геналогик тадқиқотларнинг илмий ва амалий аҳамияти // “Ўзбекистон этнологияси: аъналар ва инновациялар” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2022. – B.117-118.



XIII asrda yurtimizga bostirib kelgan ko'chmanchi mo'g'ullar orasida keyinchalik o'troqlashish jarayoni kuzatiladi. O'troqlashgan mo'g'ul xalqi mahalliy xalq urf – odatlarini ayrimlarini qabul qilgan yoki aksincha bo'lgan jarayon kuzatilgan. Keyinchalik xalqimiz orasida mavjud bo'lgan yetti avlodni bilish bilan bog'liq bo'lgan jarayon shu tariqa paydo bo'lgan degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Muallif asarni yozishga kirishar ekan, uydirma va soxtaliklarga yo'l qo'ymaslikka, tarixdan chetga chiqmaslikka harakat qiladi. Har holda asarni yozishda o'n sakkizta asar manbalariga tayanib yozganligini ta'kidlab o'tgan. Asarning dastlabki boblarida maqol, afsona, va ertaklardan foydalanib ularning mazmunini yoritishga katta e'tibor qaratgan. Har bir xalqning o'tmishi va madaniyatini o'rganishda tarixiy manbalar, afsona va rivoyatlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz lozim.

